

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ALIBGERI DANTE IJODIDA “YANGI YOQIMLI USLUB”NING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ulug‘bek Qo‘chqarovich Ko‘chimov

Alfraganus University Sharq filologiyasi kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: u.kochimov@afu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada Aligeri Dante hayoti bilan bog‘liq muhim ma‘lumotlar. Dante ijodining milliy Italian adabiy tilining shakllanishidagi ahamiyati. “Yangi yoqimli uslub”ning o‘ziga xos xususiyatlari va Sharq allomalarining Dante ijodiga ta’siri masalalari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: renesans, Dante, Beatrice, “Yangi hayot”, “Yangi yoqimli uslub”.

Boshqa xalqlar tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni to‘g‘ri anglash uchun avvalo o‘rganilayotgan davr madaniyati va adabiyoti bilan tanishish lozim. Chunki o‘zga xalqlar madaniyati bilan “muloqot” qilish murakkab masalalardan biri bo‘lib, o‘tmishda yaratilgan madaniy va adabiy yodgorliklar yaratilgan davrni, davr yaratgan shaxslarni, ijodkor shaxslar tomonidan yaratilgan asarlarni bilish orqali davr ruhini bilish muhim sanaladi. Bu fikrimizni nemis yozuvchisi Herman Hissining “Jahon adabiyoti kutubxonasi” maqolasidagi fikrlari bilan tasdiqlash o‘rinlidir: “Ta’limning maqsadi ayrim qobiliyatlar va samarlarni rivojlantirish emas, balki hayotimizga ma’no baxsh etishga ko‘maklashishdir, o‘tmishni idrok etishu kelajakni qarshi olishga mardona tayyorlanishga yordam berishdir. Ana shunday ta’limga olib boradiganlar ichida eng muhimi-jahon adabiyotini o‘rganishdir, ko‘pgina xalqlarning yozuvchilari va mutafakkirlari asarlari ichida bizga o‘tmishdan tuhfa bo‘lib qolgan fikrlar, hikmatlar, tajriba, ramzlar, a’mollarning hududsiz xazinasini izchillik bilan bobma-bob o‘zlashtirishdir”[1:3].

Darhaqiqat, Aligeri Dante nomi bizning ongimizda Shekspir nomi bilan bir qatorda turuvchi G‘arbiy Yevropa Uyg‘onish davri madaniyatining eng qimmatli yutuqlarining ramziy belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Dante Aligeri o‘rta asrlarning so‘nggi ko‘zga ko‘ringan shoiri va uyg‘onish davri mutafakkirlaridan biri sifatida Yevropa madaniyatining rivojlanish xususiyatlarini belgilab bergan ijodkordir. Shuningdek uning ijodi milliy italyan adabiy tilining shakllanishida ham muhim rol o‘ynadi. H.Boltaboyev ta’kidlaganidek: “Italiya madaniyatidagi uyg‘onish tilga munosabatdan kelib chiqadi, garchi Uyg‘onish davri she’riyatda lotin tilida asarlar yozgan shoirlar (masalan, J. Pontano va boshqalar) uchrab tursa-da, ko‘pchilik shoirlar eski lotin tilidan jonli xalq tili bo‘lgan italyan tili sari qadam tashlagan Dante Aligeri kabi tilni isloh qilganlarga ergashdi” [2:431]. U nafaqat milliy til uchun

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

kurashdi, balki milliy she'riyatni rivojlantirishda ham jonbozlik ko'rsatdi. Ajablanarlisi shundaki, bu teran tafakkurli shaxs she'riyati va uning falsafiy qarashlari sakkiz asr davomida kitobxonlar uchun dolzarb va qiziqarli bo'lib kelmoqda. Buning sababi albatta, u yaratgan ma'naviy olamning badiiy qimmati bilan bog'liqdir.

Dante hayotini o'rganganlardan biri Italiya ilk uyg'onish davrining atoqli yozuvchisi Jovanni Bokkachchodir.

Dantening kelib chiqishi, ya'ni ajdodlari boy va badavlat Rim oilasidan bo'lgan. Ular Toskana poytaxtining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Hozirgi kungacha saqlanib qolgan qo'lyozmalarda Dantening ota-bobolari aristokratiyaga mansub va risar unvoniga ega bo'lgan oilalardan hisoblanadi. Dante tarjimai holi tadqiqotchilari uning ta'lim olish jarayoni haqida yakdil emaslar. Balki o'zaro ziddiyatli fikrlarni o'rtaga tashlaydilar. Chunonchi, bir versiyaga ko'ra 1280-yillarda Dante Yevropadagi nufuzli oliy ta'lim mussasasi bo'lgan Bolonya universitetida ta'lim olgan deyilsa, boshqa versiyaga ko'ra Dante maktab ta'limidan boshqa ta'limni olmagan. Lekin mustaqil ravshda grammatika, ritorika, astronomiya va klassik lotin tilini o'rgangan. Dante ta'lim olgan yillarda asosiy manba “Injil” bo'lib, ta'lim jarayonida to'liq o'rganilgan. Injil ham bilim manbai, ham hayot darsligi ham kelajakni bashorat qilish xususiyatiga ega fan sifatida o'rganilganligini e'tirof etishadi.

Dantening asl ismi Aligeri Durantedir. Tahminlarga ko'ra Dante 1265 yil 18 mayda Florensiya shahrida o'rtahol oilada tavallud topdi. Aligeri Dante 1266 yilda Durante nomi bilan suvga chumiltirilganligi haqida ma'lumotlar bor. Uning yoshlik yillari qanday o'tganligi haqida ma'lumotlar yo'q. Lekin otasidan erta yetim qolib ugay ukasi Franchesko bilan birga ulg'aygani haqida qisman ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Dante 1295 yilda Jemma Donati ismli qizga uylanadi. Manbalarda aytilishicha Dante va Jemma Donati o'rtasidagi nikoh shartnomasi Dante 12 yoshda ekanligida ota-onalari tomonidan tuzilgan. Dante va Jemma uch o'g'il va bir qiz farzand ko'rishadi. Uning Beatrichega bo'lgan muhabbati Jimmaga uylanib, undan farzandlar ko'rishiga monelik qilmaydi. Dante farzandlari bilan doimiy yaxshi munosabatda bo'lgan. Lekin Dantega siyosiy ayb qo'yilib Florensiyadan quvilganidan so'ng xotini bilan ajrashgan va hech qachon ko'rishmagan degan ma'lumotlar bor.

Dante ijodining boshlanishi Italiyada paydo bo'lgan she'riyatdagi “Yangi yoqimli uslub” (bu atamani ilk bor Dante qo'llagan) maktabi nomi bilan bog'liq. Bu maktab tarkibida uning do'stlari Gvido Kavalkanti, Lapo Djanni va boshqalar ham

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

foliyat yuritgan. “Yangi yoqimli uslub”ning dasturi va ijodiy natijalari o‘zidan oldingi Sisiliya va Boloniya maktablaridan tubdan farq qilgan.

“Yangi yoqimli uslub” namoyandalari Provans poetikasiga muhabbatning axloqiy tomonlarini kiritdilar. Bu esa ayolni nafaqat go‘zallik ideali, balki axloqiy kamolotning timsoli sifatida ham ulug‘lashga imkon beradi. Bu uslubni rivojlantirganlardan biri Dantening yaqin do‘sti Gvido Kavalkantini aytish mumkin. Uning ijodida insonlar sevgilisida farishta borligini, va sevgiga loyiq bo‘lish uchun inson o‘zini yaxshilashi lozim degan fikrlar tarannum etiladi.

Shuningdek, “Yangi yoqimli uslub” vakillari psixologik mazmunni chuqurlashtirish va she‘riy tilning takomillashuviga e‘tibor qaratadilar. Oddiy mexanik uslublardan voz kechib, fikrlarda uslubning nafosatini, oliyanobligini, hamda ijodkor individuallashuvi va samimiyligiga intiladilar. Bu uslub vakillari sevgini ideallashtirib unga buyuk ma‘naviy kuch sifatida qaraydilar va sevgini eng ulug‘vor, olijanob tuyg‘u deya baholaydilar. “Shoirilar tasavvurida Madonna qiyofasi muhabbatning afsonaviy ramzi emas, balki hayotda mavjud, shoirga zamondosh, haqqoniy muhabbat sohibasi bo‘lmish sohibjamol xonimga aylangan edi. Oqibatda muhabbatni nozikta‘b hissiyot bilan kuylagan ijodkorlar she‘riyatida “shirinta‘b yangi uslub” namoyon bo‘lgan edi” [3:434]. Najmiddin Komilov ta‘kidlashicha: “Olam negizida ishq yotadi. U barcha jonli va jonsiz mavjudotlarni boshqarib turadi! Bu buyuk Sharq allomasi Ibn Sino xulosasidir. “Risola fil-ishq”da (I.Sino asari) insoniy muhabbat-go‘zal qiyofa (chehra)ni ezgulik yo‘lida ma‘naviy tuyg‘u bilan sevishdurkim, bu kamolotga intilishning bir bosqichidir, deyiladi. Dante uni sohibjamol Ayol (Madonna)ni sadoqat bilan sevish tarzida ifodalaydi... Ibn Sino risolasida ishq odamga nisbatan ham, xayoliy qiyofa yoxud ko‘ngilda shakllangan timsolga nisbatan ham bo‘lishi mumkin, deyiladi. Sevguvchi bu timsolni yuragida o‘z istagicha gavgdaltantiradi”[4:90]. Fozila Sulaymonovanning qayd etishicha: “Faylasuflarning fikricha, eng oliy go‘zallik bu ilohiyatdir. Insonning asl vazifasi unga intilishdir. Tabiatan inson zaif va gunohga beriluvchi. Shuning uchun sohta, yuzaki go‘zlallik, masalan, ayollar go‘zalligi bilan uni yo‘ldan urish oson. Shuning uchun odam uni farqlay bilishi, mutolaa bilan o‘zini o‘zi kamolotga erishtirishi, oliy go‘zallik, oliy muhabbatni shu tariqa anglab yetishi lozim. Oliy dunyo, ilohiyat dunyosi haqiqiy go‘zallik va muhabbat dunyosidir” [5:336-337]. Yuqoridagi fikrlardan ma‘lum bo‘ladiki, Beatrice ("inoyat" degan ma‘noni anglatadi) Dantening birinchi muhabbati. U 24 yoshida 1290-yili vafot etadi. Dante hayotda unga erisholmagan bo‘lsa-da, ijodi uchun ilhombaxsh timsol, xayoliy muhabbat, go‘zal inson, mutloq haqiqat va oliy ezgulik sifatida romantik dunyosida yashab qoldi.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Dante qalbida kechgan bu jarayonlar uning butun ijodida qolaversa, “yangi uslub”ning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashda ham muhim omil bo‘lib xizmat qilgan deyishga asos bo‘ladi. Shu o‘rinda “Yangi yoqimli uslub”ning o‘ziga xos xususiyatlarini shartli ravishda ajratib ko‘rsatishga harakat qilamiz: a) mag‘rurlik va hukmronlik o‘rniga kamtarlik va tashqi ko‘rinishi bilan yaxshilikni o‘ziga jalb qiladi; b) yurakning barcha kechinmalari oshiq qalbida yashovchi "ruhlar"ning nozik o‘yinida mujassamlashadi; s) asar qahramonlari psixologik tahlil jarayonida sun‘iylik va odatiylikdan aziyat cheksa ham, aniqlik, chuqurlik va noziklikka ega bo‘ladi; g) sevgini ideallashtirib unga buyuk ma‘naviy kuch sifatida qaraydilar va sevgini eng ulug‘vor, olijanob tuyg‘u deya baholaydilar; k) ko‘rsatilgan kamchilik yuqori axloqiy mazmun va haqiqiy shaxsiy tuyg‘u bilan uyg‘unlashadi; v) psixologik mazmunni chuqurlashtirish va she‘riy tilning takomillashuviga e‘tibor qaratadilar.

Dantening "Yangi hayot" asari yoshlik lirikasi hisoblanadi. Asar o‘ziga xos kompozitsiyaga ega. Yagona syujetga bo‘ysindirilgan Ya‘ni asarda syujet asosini Beatrichi bilan uchrashuvlar tashkil etadi. Bundan tashqari she‘riyat va ijod haqida ham o‘zining ba‘zi fikrlarini bildirib, “Yangi yoqimli uslub” janrlari tadriji va she‘riyatning nazariy sirlarini qanday egallagani haqida ham eslab o‘tadi. Shu bilan birga til nazariyasi va insonning o‘zini o‘zi anglashi, astronomik hisoblar, raqamlar sehri, ilohiyot va ruhning tuzilishi haqidagi ta‘limotlarni mahorat bilan ochib beradi va o‘zining tanqidiy qarashlarini ham izohlaydi, bu ilmiy va falsafiy fikrlarni asoslashda Sharq allomalaridan Ibn Sino, Al Farg‘oniy va Ibn Rushd asarlariga tayanadi.

Xulosa qilib aytganda, Dante barcha davrlarning buyuk shoiridir. U Renessans davri muammolarini o‘z asarlarida obrazli tasvirlab, inson ichki olamida kechayotgan holatlarni obrazlarda yorqin ochib beradi. Antik davr yozuvchilari va faylasuflaridan tortib Sharqning yetuk allomalari ijodigacha murojaat qiladi va asarlarida ular bilan hamfikir ekanligini isbotlaydi. “Yangi yoqimli uslub”ning ilmiy rivojiga munosib hissa qo‘shdi. Uning ijodiy merosi barcha ijodkor va kitobxonlarga o‘rganilishi va o‘qilishi lozim bo‘lgan asarlar sirasiga kiradi va barhayot yashab qolaveradi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Шарафиддинов О. Таржималар. Жаҳон адабилари адабиёт ҳақида. Ҳерман Ҳесси. Жаҳон адабиёти кутубхонаси мақоласи. Т.; “Маънавият”. 2010. Б. 3.
2. Boltaboyev H. Jahon adabiyotshunosligi tarixi. T. “Mumtoz so‘z”. 2020. B. 431.
3. Boltaboyev H. Jahon adabiyotshunosligi tarixi. T. “Mumtoz so‘z”. 2020. B. 434.
4. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. Т.; "Маънавият". 1999. Б. 90.
5. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Т.; “Ўзбекистон”. 1997. Б. 336-337.